

YANGI O‘ZBEKISTON DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Mavlonov Rustam Esonqulovich

TKTI Yangiyer filiali NMKT fakulteti tyutori

Telefon: +998945855502

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi tub islohotlar, ularning maqsadi, yo‘nalishlari va ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim, kasb-hunar ta’limi hamda maktabgacha ta’lim tizimida kuzatilayotgan yangilanishlar tahlil qilinadi. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida ta’lim sifatini oshirish, ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilar mehnatini qadrlash va raqamli ta’limni joriy etish borasidagi amaliy chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Inson qadri uchun, maktabgacha ta’lim, xorijiy universitet, zamonaviy ta’lim, xalqaro mezon.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda barcha sohalarda bo‘lgani kabi, ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan Yangi O‘zbekiston davri taraqqiyot, ochiqlik, adolat va inson manfaatlariga asoslangan boshqaruv tamoyillari bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda ta’limga bo‘lgan e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va kasblarga ega, raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazish bugungi islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. So‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim, kasb-hunar ta’limi va maktabgacha ta’lim tizimlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu islohotlar xalqaro standartlarga mos bilim berish, zamonaviy metodlarni joriy etish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari va jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson kapitali, ayniqsa, ta'lim sohasi alohida e'tiborga ega. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini tubdan yangilash, uning sifatini xalqaro mezonlarga moslashtirishga qaratilgan. Davlat rahbarining tashabbusi bilan ta'limning barcha bosqichlarida kompleks o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim tizimidagi kengayishlar. Yangi O'zbekiston davrida oliy ta'limga qabul kvotalarining oshirilishi, xususiy va xorijiy OTMLar faoliyatining yo'lga qo'yilishi ta'lim sohasida muhim o'zgarish bo'ldi.

- Agar 2016-yilda O'zbekistonda atigi 77 ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yil holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 199 taga yetdi, ularning qariyb 50 tasi xorijiy va xususiy universitetlardir.

- 2016-yilda talabalikka qabul qilinganlar soni 66 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida bu raqam 181 ming nafardan oshdi.

- Oliy ta'limda qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizgacha oshdi.

Kasb-hunar va texnik ta'lim islohotlari. Iqtisodiyot ehtiyojlariga mos, amaliy ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash maqsadida kasb-hunar ta'limi yangicha mazmunda qayta tashkil etildi.

- 2019-yilda joriy etilgan Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar soni 400 dan ortdi.
- 2024-yilga kelib ushbu muassasalarda 1,2 milliondan ortiq yoshlar tahsil olmoqda.
- Kasbiy sertifikatlash va modul asosida o'qitish tizimi joriy etilib, yoshlarning bandligini ta'minlashda muhim vositaga aylandi.

Xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish. So'nggi yillarda O'zbekiston 20 dan ortiq xorijiy davlatning ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma dasturlarni yo'lga qo'ydi.

- Ta'lim tizimida raqamlashtirish darajasi ortib, my.edu.uz, bilim.uz, online maktab kabi platformalar keng joriy etildi.
- 2022–2023 yillarda 6,5 milliondan ortiq o'quvchi masofaviy ta'lim resurslaridan foydalandi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya'ni to'rt yil ichida respublikamizda bog'chalar soni 3 barobar oshib, bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir. Sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o'ringa ega bo'lgan 7 ming 400 ta xususiy bog'cha tashkil qilindi. Bu maqsadlar

uchun 1 trillion 850 milliard so'm imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltirilib, 20 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Yaqin-yaqinlargacha o'qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o'quvchilar ham, to'rt oylab paxta yig'im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgan, natijada o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tishi kerak bo'lsa, to'rt oyda 320 soat yo'qotadigan vaziyat vujudga keldi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mana shunday salbiy holatlarga chek qo'yildi. So'nggi to'rt yilda maktab o'qituvchilarining oylik maoshi bir yarim barobar ko'paytirilganligi, davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni oshib borishi, o'qituvchi tayyorlaydigan hisobotlar, qog'ozbozliklar soni keskin kamaytirilganligini o'zi ham ta'limning bu bosqichida ulkan ijobiy o'zgarishlarga zamin bo'ldi. Islohotlar, o'zgarishlar natijasida respublika bo'yicha qariyb 15 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi.

Xulosa. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Aholi fikrini

o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi rasmiy statistik ma'lumotlari, 2023. – www.mehnat.uz, www.edu.uz
3. Jo'raev M., Abdujabborov A. Ta'lim tizimi islohotlari: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2022.